


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Ankara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

X.S.Umarxo'jayeva	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lif sohasi talabalarida ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish usullari	117
D.A.Solixo'jayeva	
Professional ta'lif muassasalarida tahlil olayotgan o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi	120
D.Aminova	
Internetda PR kommunikatsiya xususiyatlari	126
U.G'.Abdullaeva	
Ekologik ta'lif-tarbiya ni amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy usullari	132
D.Y.Tashnazarov	
Sportning yunon-rim kurash turida texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining samaradorligi (<i>chap tomoniga bajarish asosida</i>)	135
J.G'.Obidov	
Texnika oliv o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatcion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi didaktik manbalarni yaratish hamda zamonaviy o'quv jihozlaridan ratsional foydalanish	144
A.R.Qodirov	
Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini interaktiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	151
M.A.Esonmirzayeva	
Bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivojlantirish usullari va takomillashtirish yo'llari	156
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistikaning til madaniyati va nutq kompetensiyasini shakllanish tamoyillari	160
G.M.Zoitova, Z.F.Arabjonova	
35-40 yoshdagi ayollarda sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida akvafitness vositalaridan kompleks foydalanish	165
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rim kurashchilarini texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining kinematik asoslarini o'rganish (<i>o'ng tomoniga bajarish asosida</i>)	172
B.Q.Baratov	
Badiiy-tarixiy materiallar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati	181
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs	185
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoiy texnologiya" fanining tuzilishi, mazmuni va takomillashtirish modeli ..	189
N.M.Xodjibolayeva	
Pedagogika fanlari xamkorligi asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy masalalari	196



UO'K: 81'42:070

**JURNALISTIKANING TIL MADANIYATI VA NUTQ KOMPETENSIYASINING
SHAKLLANISH TAMOYILLARI**

**ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЯЗЫКОВОЙ КУЛЬТУРЫ И РЕЧЕВОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ ЖУРНАЛИСТИКИ**

**PRINCIPLES OF FORMATION OF LANGUAGE CULTURE AND SPEECH
COMPETENCE OF JOURNALISM**

Dusimbetova Nargiza Baxtiyarovna 

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti katta o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada jurnalistlarning yozma va og'zaqi nutq madaniyati jamiyat fikrini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan. Nutqni to'g'ri va samarali qo'llash uchun tilshunoslik qoidalariga amal qilish, shuningdek, ijodiy va professional muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur makolada matbuot, radio, televizion va internetdagi nutq shakkiali, ularning to'g'ri va samarali qo'llanilishi masalalari qamrab olingan. Jurnalistning nutq madaniyati na faqat kasbiy muvaffaqiyatiga, balki jamiyatdagi ma'naviy va madaniy rivojlanishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Abstract

The article analyzes the importance of journalists' written and oral speech culture in shaping public opinion. Following the rules of linguistics is essential for the correct and effective use of speech, and it plays a vital role in solving creative and professional problems. This article covers the forms of speech in the press, radio, television, and the internet, as well as the issues related to their correct and effective application. A journalist's speech culture influences not only their professional success but also contributes to the moral and cultural development of society.

Аннотация

Статья анализирует важность письменной и устной речи журналистов в формировании общественного мнения. Соблюдение правил лингвистики важно для правильного и эффективного использования речи, а также играет важную роль в решении творческих и профессиональных проблем. В статье рассматриваются формы речи в прессе, радио, телевидении и интернете, а также вопросы их правильного и эффективного применения. Культура речи журналиста влияет не только на его профессиональный успех, но и на моральное и культурное развитие общества.

Kalit so'zlar: Jurnalistika, nutq madaniyati, yozma nutq, og'zaqi nutq, radio, televizion, internet, multimedia, infografika, kommunikatsiya, ijodiy ko'nikmalar, yozma va og'zaqi til qoidalar.

Ключевые слова: Журналистика, культура речи, письменная речь, устная речь, радио, телевидение, интернет, мультимедиа, инфографика, коммуникация, творческие навыки, правила письменного и устного языка.

Key words: Journalism, speech culture, written speech, oral speech, radio, television, internet, multimedia, infographics, communication, creative skills, written and oral language rules.

KIRISH

Jurnalistlar uchun yozma va og'zaki nutq madaniyati jamiyatning fikriy ongini shakllantirishda muhim rol o'yinaydi. Nutqni aniq va ta'sirchan tarzda qo'llash uchun tilshunoslik qoidalariga rioya qilish zarur. Shuningdek,, jurnalistlar o'z nutqlarini shakllantirish jarayonida quyidagi muhim omillarga e'tibor berishlari zarur. Demak, nutq madaniyatining tamoyillariga amal qilgan jurnalistlar jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va axborot madaniyatining rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatning madaniy taraqqiyoti va milliy yuksalishining muhim mezonlaridan biri – nutq madaniyatidir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy hamda ta'lif sohasidagi islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari vakillari uchun nutq madaniyatining ahamiyati yanada ortib bormoqda[1,112].

PEDAGOGIKA

Jurnalistlar jamiyat tafakkurini shakllantirishda markaziy o'r'in tutganligi bois, ularning nutq madaniyati bilimli, zukko va aniq fikr bildiruvchi jamoatchilikni shakllantirishga xizmat qiladi[2,78]. Axborotni aniq va ta'sirchan shaklda yetkazish, til qoidalariga riosa qilish, grammatic to'g'rilik hamda uslubiy mukammallikka intilish – jurnalist kasbiy mahoratining ajralmas qismidir. Shu sababli, nutq madaniyati jurnalstning ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Jurnalistika sohasida nutq madaniyatining rivoji ushbu hujjatlarda ko'zda tutilgan g'oyalar bilan uziyi bog'liq bo'lib, har bir jurnalist o'z tilini saqlash, rivojlantirish va to'g'ri qo'llashda namuna ko'rsatishi kerak. Axborot manbalarini tayyorlashda to'g'ri grammatic tuzilish, uslubiy anqlik, va axloqiy me'yorlarga muvofiq nutq qoidalariga amal qilish jamiyatda ma'naviy va madaniy yuksalishga hissa qo'shadi.

Jurnalistika sohasida nutq madaniyatini o'rganishda mutaxassislar uni uch asosiy yo'nalishda tahlil qilishni tavsiya etadilar: vizual nutq (matbuot va bosma ommaviy axborot vositalari uchun), audio nutq (radio eshittirishlari uchun) hamda audiovizual nutq (televidenie va hujjatl filmlar uchun). Ushbu tasnif jurnalistik axborotni yetkazishda nutqning an'anaviy tilshunoslik doirasidan tashqariga chiqib, uni yanada kengroq va chuqurroq talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Ommaviy axborot vositalarining har bir turi o'ziga xos nutq shakli va amaliy vazifalariga ega bo'lgani sababli jurnalistlar har bir platformaning nutq madaniyatiga mos ravishda moslashishlari lozim.

Vizual nutq – Matbuot va bosma jurnalistikada yozma til qoidalariga riosa qilish, lug'aviy boylikdan foydalanish hamda fikrni aniq, sodda va mantiqiy bog'liqlik asosida yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazmunli sarlavhalar tanlash, maqola tuzilishini oqilona shakllantirish va tasviriy vositalardan samarali foydalanish vizual nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, gazeta maqolasи yoki internet blogposti har doim mantiqiy izchillikka ega bo'lishi hamda o'quvchining e'tiborini jalb etuvchi uslubda yozilishi lozim[3,56].

Audio nutq – Radio-eshittirishlari uchun ishlataladigan nutqning ta'sirchanligi tinglovchining e'tiborini ushlab turish uchun ovozning emotisional ifodaviyligi, nutqning ravonligi va so'zlarning ritmik tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Bu turdag'i nutq jonli, tabiy va tinglovchiga yaqin bo'lishi lozim.

Audiovizual nutq – Televideniya va hujjatl filmlarda nutq faqat so'z bilangina emas, balki tasvir va ovoz effektlari bilan uyg'un holda ifodalanadi[4,89]. Ushbu formatda tilning vizual va audio omillari bir-birini to'ldiradi. Jurnalistlar videokontent uchun ssenariy tayyorlashda lavhalarning dinamikasiga, kadrlar ketma-ketligiga hamda ovoz va tasvirning uyg'unligiga e'tibor qaratishlari lozim.

Internet nutqi esa multimedia vositalari yordamida yanada boyigan format bo'lib, faqat yozma matn bilan cheklanmay, vizual va audiovizual elementlarni ham o'z ichiga oladi. Internet platformalarida axborotni tarqatishda videolar, GIF-animatsiyalar, infografikalar, memlar va skrinshotlar keng qo'llanmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda vizual kontent eng muhim tarkibni tashkil qiladi – masalan, Instagram, Twitter va Facebook kabi platformalarda.

Shu tarzda, jurnalistlar nutq madaniyatining har bir yo'nalishining o'ziga xos jihatlarini puxta tushunib olishlari zarur. Turli medialar uchun mos keladigan nutq qoidalariga riosa qilish nafaqat axborotni samarali yetkazishni, balki jamiyatdagi muloqot va madaniyat darajasining yuksalishiga ham yordam beradi. Umuman olganda, nutq madaniyati jurnalstning ijodiy mahorati va kasbiy mas'uliyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichdir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Axborot asrida jurnalstikaning zamonaliv yo'nalishlari internet nutqi bilan chuqur bog'langan. Axborot tezligi, ta'sirchanlik va soddalikka yo'naltirilgan davrda yozma matnlarga dizaynerlik yechimlari qo'shilmoqda. Bu jarayonda jurnalist uchun quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

- 1. Infografika va vizual tahririyatdan foydalanish** – Qiyin mavzularni infografika yordamida soddalashtirish, yozma maqolani tushunishni osonlashtiradi.

- 2. Multimedia kontentning ta'sirchanligi** – Ma'lumotga mos fotosuratlar, diagrammalar va video lavhalar qo'llash, axborotni o'quvchining e'tiborini yanada tortadi va yodda qolish imkoniyatini oshiradi.

3. Tezkor xabar va jarayonlar – Ijtimoiy tarmoqlarda internet nutqi qisqa va jonli bo'lishi lozim. Har bir tvit yoki post auditoriya'ni jalb qiluvchi vizual elementlar bilan ta'minlanishi kerak [5,118].

Jurnalistlar vizual va internet nutqi orqali axborot tarqatishda samarali qoidalarga amal qilishlari zarur. Yozma va vizual kontentning uyg'unligi axborot yetkazish sifatini oshiribgina qolmay, balki global axborot makonida milliy media nufuzini mustahkamlashga ham yordam beradi. Har bir ommaviy axborot vositasi uchun alohida nutq madaniyati talab qilinadi, shu jumladan, internet jurnalistikasi ham o'ziga xos professional malakani talab qiladi. So'nggi yillarda ommaviy muloqot sohasidagi til faoliyatini o'rganish bilan birga, turli ommaviy axborot vositalarida: bosma, radio va televideniyada nutqni qo'llashni tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'paymoqda. Shuning uchun "gazeta tili", "radio tili" kabi atamalar zamonaviy ilmiy fikrda "ommaviy axborot vositalari tili" tushunchasining mustahkamlanishiga hissa qo'shib, tobora ilmiy va lingvistik izlanishlarda keng qo'llanilmoqda [6,118].

Internet nutqi va vizual nutq o'rtaida bir qancha o'xshashliklar mavjud. Ikkalasi ham axborotni samarali tarzda yetkazish va uning qabul qilinishida multimedia elementlaridan foydalanish hamda taassurotni kuchaytirish usullariga asoslanadi.

Matbuotdag'i vizual nutq, odatda, aniq bir shaklga ega bo'lib, dizayn va illyustratsiyalar maxsus maqsadlar uchun ya'nii axborotni professional tarzda etkazish uchun ishlataladi[7,110]. Internet nutqi esa interaktiv va dinamik bo'lib, foydalanuvchilardan javob olishni talab qiladi. Internetda vizual elementlar faqat axborotni tushuntirish uchun emas, balki foydalanuvchilarning o'zaro aloqasini rivojlantirish uchun ham ishlataladi.

Demak, matbuotdag'i vizual nutq va internet nutqi orasidagi asosiy farq shundaki, internetda axborot tezda va turli formatlarda, shu jumladan, interaktiv tarzda yetkazilishi mumkin. Internetda vizual elementlar dinamik va interaktiv bo'lib, foydalanuvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va ular bilan muloqot qilishni ta'minlaydi. Vizual nutq matbuotda axborotni o'quvchiga samarali tarzda yetkazish va uning ta'sirini oshirish maqsadida ishlataladi, ammo bu ko'pincha statik shaklda ifodalanadi.

Internet nutqi, vizual nutqni o'z ichiga olsa-da, ular orasidagi farq shundaki, internetda axborot nafaqat tasvirlar va grafikalar, balki foydalanuvchi bilan interaktiv muloqotga imkon beradigan turli formatlarda taqdim etiladi. Bu esa internet nutqini vizual nutqdan yanada kengroq va dinamikroq qiladi. Jurnalistikada so'z axborotni yetkazishning asosiy vositasi bo'lsa-da, u yagona vosita emas. Matn bilan birga jurnalistikaning turli vositalari, jumladan, vizual elementlar axborotni samarali va ta'sirli tarzda yetkazishda muhim o'r'in tutadi.

Matbuotda so'z nutqning markazida turadi, lekin matndan tashqari boshqa qo'shimcha elementlar, masalan, fotosuratlar, tasvirlar, infografika, sxemalar, shuningdek, bezak vositalari, jumladan, shrift turi, rang uyg'unligi va joylashuv, axborotning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Bu elementlar o'quvchining vizual idrokini kuchaytirib, uning e'tiborini jalb qiladi.

Televideniyada so'zlarning audio jihatlari (intonatsiya, ovoz balandligi) bilan birga, xatti-harakatlar, mimika va tasvir elementlari (rakurs, yorug'lik va soya o'yinlari) ham ma'lumotni qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Televideniya, boshqa ommaviy axborot vositalaridan farqli o'laroq, axborotni bevosita vizual tarzda taqdim etish imkonini beradi, bu esa materialning ta'sirchanligini oshiradi[8,72].

Internet tili zamonaviy axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda foydalaniladigan nutq shakli bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari va struktura farqlari bilan ajralib turadi. Internet tili an'anaviy nutqdan farq qiladi, chunki u yangi elementlar bilan boyib, axborot almashinishing tezkor va interaktiv usulini ta'minlaydi[118].

Jurnalistikada so'z, albatta, axborot yetkazishning asosiy vositasi bo'lib, ammo bu yagona vosita emas. Matnning o'zi bilan birga, boshqa jurnalistik vositalar ham axborotni samarali va ta'sirli tarzda yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Internetda esa axborot almashish jarayoni o'ziga xos va dinamik tarzda amalga oshiriladi. Internet tili bu jarayonning yangi shakli bo'lib, faqat so'z bilan cheklanmay, multimedia elementlaridan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

Internet tilida multimedia tarkibi katta rol o'ynaydi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoki bloglarda rasmlar, videolar va infografikalar qisqa matnlar bilan birga taqdim etiladi. Bu elementlar birgalikda foydalanuvchilarga axborotni tezda anglash imkonini beradi. Shuningdek,, internetda

PEDAGOGIKA

shovqinli muhit (e'lonlar, reklama bannerlari, videolar) mavjud bo'lib, bu foydalanuvchining diqqatini jalb qilish va axborotni yanada samarali yetkazish uchun qo'llaniladi.

Internet tilining yana bir o'ziga xos jihat – uning tez o'zgaruvchanligi. Yangi so'zlar, qisqartmalar va frazalar tezda paydo bo'lib, internet jargoni sifatida keng tarqaladi. Bu so'zlar va ifodalar o'zgarib, yangi kommunikatsiya uslublarini yaratadi. Misol uchun, internetda ommalashgan emojijar, stikerlar, memlar va boshqa simvollar nutqning yangi shaklini tashkil etadi[10,220].

Jurnalistlar va boshlovchilarining nutqidagi kamchiliklar, ayniqsa, muloqotga asoslangan teleko'rsatuvlarda, audiovizual nutqning barcha jihatlarini mukammal egallay olmasliklarini ko'rsatadi. Boshlovchining nutqidagi til xatoliklari yoki ovozdagi nuqsonlar tomoshabinlar e'tiboridan chetda qolmaydi. Yaxshi nutq madaniyatiga ega va ta'lrim olgan tomoshabinlar bunday xatoliklarni salbiy baholashadi, lekin o'smirlar bu nuqsonlarni ko'pincha yangilik yoki zamonaviylik sifatida qabul qilishadi, bu esa ularning tarbiyasiga va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1. Nutq madaniyati va jamiyatdagi tasiri: Teleko'rsatuvlarda boshlovchilarining nutqi ta'sirli bo'lishi kerak. Agar ular ovoz va tilni to'g'ri ishlatmasalar, bu tomoshabinlarning e'tiborini jalb qilishni qiyinlashtiradi. Mutaxassislardan, shuningdek, jamoatchilikning nutq madaniyatiga bo'lgan munosabati turlicha ekanligini ta'kidlaydilar. Yuqori madaniyatga ega jamiyatda bunday xatoliklar salbiy baholanadi va noto'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

2. Nutqning ta'siri va tarbiya: Nutqdagi xatoliklarning kelib chiqishi, axloqiy va ma'naviy tarbiya ni shakllantirishda muhim muammo bo'lishi mumkin. Nutq madaniyati tarbiya jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Jurnalist va boshlovchilar nutqlariga ehtiyyotkorlik bilan yondashishlari va ovoz va so'zlarni to'g'ri ishlatishga diqqat qaratishlari kerak.

3. Yoshlar va madaniyatsiz nutq: Yoshlarning bunday nutqni me'yor darajasida qabul qilishlari, axborotning noto'g'ri tasavvurlarga asoslanishiga olib kelishi mumkin. Jurnalist va boshlovchilar o'z nutqlarida to'g'ri namunalarni ko'rsatishlari zarur[11,144].

Jurnalistlarning nutqi jamiyatda madaniy me'yorlarga rioxaya qilishda muhim ahamiyatga ega. Nutqdagi kamchiliklar faqat tomoshabinlarga emas, balki yosh avlodning tarbiyasi va ma'naviy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jurnalistning nutqidagi xatoliklar, ayniqsa muloqotga asoslangan teleko'rsatuvlarda, audiovizual nutqning barcha jihatlarini to'liq egallay olmasligini ko'rsatadi. Jurnalistlarning nutqdagi til xatoliklari yoki ovozdagi nuqsonlar tomoshabinlar e'tiboridan chetda qolmaydi. Yaxshi nutq madaniyatiga ega va ta'lrim olgan tomoshabinlar bunday kamchiliklarga salbiy baho berishadi, ammo o'smirlar ba'zan bunday nutqni zamonaviylik yoki yangilik sifatida qabul qilishi mumkin. Bu esa ularning tarbiyasiga va ma'naviy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimol.

Ovoz va nutq madaniyati, adabiy tilning professional darajada ishlatilishi jurnalistning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ovozning to'g'ri qo'llanilishi, so'zning uyg'unligi va til me'yorlariga rioxaya qilish jurnalistning tomoshabinlar bilan muloqotdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Nutqni samarali tashkil etish jurnalistga auditoriya'ning ishonchini qozonishda va axborotni aniq yetkazishda yordam beradi.

Jurnalistning nutq madaniyati, ovozi va talaffuzi axborot vositalarining samarali ishlashida muhim rol o'ynaydi. Suxandon yoki boshlovchining nutqi uning professional muvaffaqiyatini ta'minlab, axborotni aniq va ta'sirli tarzda yetkazishga imkon yaratadi. Nutq madaniyati va ovozning to'g'ri ishlatilishi ommaviy axborot vositalarining global kommunikatsiya jarayonida samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi. "Jurnalist kasbiy etikasi – bu kasbiy ijodiy tashkilotlarning yuridik jihatdan mustahkamlanmagan, lekin jurnalistik muhitda qabul qilingan va jamoatchilik fikri kuchini qo'llab-quvvatlovchi axloqiy yozma buyruqlar – prinsiplar, me'yorlar va jurnalistning axloqiy fe'l-atvor qoidalari". Jurnalistika va blog yozuvchiligidagi muloqotning asosiy shakkilari og'zaki va yozma nutqdir, bu ikki yo'l axborotni tarqatishda va auditoriya bilan o'zaro aloqada katta ahamiyatga ega. Jurnalist yoki bloger o'z fikrini aniq va samarali ifodalash uchun ushbu ikki nutq shaklini tanlab ishlatadi.

Jurnalistlar og'zaki va yozma nutqni muloqotda keng qo'llaydilar. Ularning asosiy maqsadi – axborotni auditoriyaga aniq va samarali tarzda yetkazishdir. Nutqning to'g'ri va ravon ishlatilishi muloqotning muvaffaqiyatlari bo'lishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jurnalistikaning samarali ishlashi uchun nutqning to'g'ri ishlatalishi, madaniy me'yorlarga rioya qilish va auditoriya bilan uzviy aloqaning mavjudligi muhimdir. Nutqning aniq va tushunarli bo'lishi, shuningdek,, axborotni ta'sirli tarzda yetkazish orqali jurnalistlar va blogerlar o'z professionalliklarini ko'rsatadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ponomarenko, N. P. (2020). *Effective Technology for Shaping Speech Competence in Future Journalists in Project Journalism*. Baltijapublishing.lv. - P. 112.
2. Mikhailov, A. (2022). *Linguistic Culture in Journalism and Its Importance*. Moscow: "Academia". - P. 78.
3. Shmeleva, T. (2019). *The Linguistic Component of Professional Media Education*. Europeanproceedings.com. - P. 56
4. Semenova, T. M. (2018). *Speech Culture and Communication Competence Development in Journalists*. St. Petersburg: "Polytech". - P. 89.
5. andziuk, V., Tsepkalo, T., Oleksenko, V., & Kalenich, V. (2023). *Synergy of Speech and Social-Communicative Competence in Journalists*. Repository.mu.edu.ua. - P. 118.
6. Ходжаёров М.Б. <file:///C:/Users/user/Downloads/ommaviy-ahborot-vositalarida-mediamatn-tushunchasi-va-uning-llanilishi.pdf> Б.118.
7. Levchik, I., & Mazur, O. (2022). *Integrated Learning of Professional English in the Context of Journalism: A Ukrainian Perspective*. Perspectives.pp.ua. - P. 110.
8. Shorokhov, A. V. (2021). *Speech Culture in the Media: Theoretical and Practical Aspects*. Media Education Journal. - P. 72.
9. Gandziuk, V., Tsepkalo, T., Oleksenko, V., & Kalenich, V. (2023). *Synergy of Speech and Social-Communicative Competence in Journalists*. Repository.mu.edu.ua. - P. 118.
10. Montgomery, M. (2018). *Language, Media, and Culture: Key Concepts*. Taylor & Francis. - P. 220.
11. Beykutova, A. M., & Kunakova, K. O. (2024). *The Role of Foreign Languages in the Development of Communication Competence in Journalism*. Izvestiya Journal. - P. 144.